

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>Кириш сўзи</b> .....	6
<b>1. Xolbekov Abdug‘ani</b> KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
<b>2. Убайдуллаева Раиса</b> ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
<b>3. Сеитова Зухрагон</b> ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
<b>4. Alikariyeva A‘loxon</b> TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
<b>5. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
<b>6. Ходжаев Собир</b> ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
<b>7. Абдувалиева Мумтозхон</b> СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
<b>8. Burxanov Xusniddin</b> MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
<b>9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
<b>10. Nematova Dilfuza</b> KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
<b>11. Eshmanova Iroda</b> TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
<b>12. Teshayev Doniyor</b> OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
<b>13. Pخomov Umrbek</b> O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
<b>14. Nurqulov Bunyod</b> YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
<b>15. Qobilov Uchqun</b> DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

<b>16. Izzatulloeva Kamilla</b> IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
<b>17. Burxanov Xusniddin</b> AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
<b>18. Imomova Nozimaxon</b> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ


## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Teshayev Doniyor,**

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

e-mail: doniyorteshayev1994@gmail.com

### OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO'YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO'NALISHLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423478>

#### ANNOTATSIYA

Tarixdan sharqona yashash va turmush tarzi sharoitida oilaviy nizolar yuzaga chiqqanda har ikki tomon uchun hurmatga sazovor, yoshi ulug' kishilarning nizolarni hal qilib, nizolashuvchilarni yarashtirish faoliyati bilan shug'ullangan shaxslarni bugungi mediatorlar sifatida qarash mumkin. Ushbu ilmiy maqolada oilaviy nizolarni hal etish bo'yicha mediatorlar tayyorlash va ularni kasbiy rivojlantirishning mamlakatimizdagi joriy holati hamda sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilik asoslari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, mediatorlarni tayyorlashning xorijiy mamlakatlarda shakllangan tajribasi hamda mamlakatimizda sohani rivojlantirishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan hamda ularning yechimiga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mediatorlar, reestr, malaka, odob-axloq kodeksi, tajriba, dastur, nazariya va amaliyot.

**Тешаев Дониёр,**

Докторант Национального университета Узбекистана

e-mail: doniyorteshayev1994@gmail.com

### НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ ПОСРЕДНИКОВ ПО РАЗРЕШЕНИЮ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ

#### АННОТАЦИЯ

Исторически сложилось так, что в контексте восточного образа жизни и уклада жизни, когда возникали семейные споры, то сегодняшними посредниками можно считать пожилых людей, которые пользовались уважением обеих сторон и занимались разрешением споров и примирением конфликтующих сторон. В этой научной статье представлена аналитическая информация о текущем состоянии подготовки и профессионального развития медиаторов по разрешению семейных споров в нашей стране, а также об основах национального законодательства, регулирующего эту сферу. Также проанализирован опыт подготовки медиаторов, сложившийся в зарубежных странах, а также существующие проблемы в развитии отрасли в нашей стране, даны предложения и рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** посредники, реестр, квалификация, кодекс поведения, опыт, программа, теория и практика.

**Teshayev Daniyori,**

Doctoral student of the National University of Uzbekistan

e-mail: doniyorteshayev1994@gmail.com

**DIRECTIONS FOR THE PREPARATION OF MEDIATORS FOR THE RESOLUTION OF FAMILY DISPUTES****ABSTRACT**

Historically, in the context of the Eastern way of life and lifestyle, when family disputes arose, today's mediators could be considered older people who were respected by both parties and were engaged in dispute resolution and reconciliation of the conflicting parties. This scientific article provides analytical information on the current state of family dispute resolution mediators and their professional development in our country and the basics of national legislation regulating the industry. Also, the experience of the preparation of mediators in foreign countries and the existing problems in the development of the industry in our country have been analyzed and suggestions and recommendations have been made on their solution.

**Keywords:** mediators, register, qualification, code of etiquette, experience, program, theory and practice.

**KIRISH**

Bugungi kunda mediatsiya amaliyoti oilaviy va boshqa turdagi nizolarni sudgacha hal etishning muqobil mexanizmi sifatida muhim rol o'ynaydi. Xorij mamlakatlar tajribasida ham, O'zbekiston amaliyotida ham ko'rish mumkinki, ushbu mexanizmning rivojlanishi oilaviy nizolarni oldini olishda samarali xizmat qilmoqda. Ma'lumot uchun, mediatsiya fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida" 2018-yil 3-iyuldagi O'RQ-482-son Qonuniga muvofiq, mamlakatimizda oilaviy nizolarni hal etish bo'yicha mediatorlarning faoliyati professional yoki noprofessional asosda tashkil etilishi belgilangan [1].

Oilaviy va boshqa turdagi nizolarni hal etish bo'yicha professional asosdagi mediatorlar Professional mediatorlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek, Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxslar bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan professional mediatorlar reyestri yuritiladi [2]. Shaxs mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tganidan so'ng professional mediatorlar reyestriga kiritiladi.

25 yoshga to'lgan va mediatorlik vazifalarini bajarishga rozilik bergan, shuningdek, ushbu malakalarga ega bo'lgan shaxslar noprofessional asosda mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanishi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tishi mumkin [3].

Tarixdan sharqona yashash va turmush tarzi sharoitida oilaviy nizolar yuzaga chiqqanda har ikki tomon uchun hurmatga sazovor, yoshi ulug' kishilarning nizolarni hal qilib, nizolashuvchilarni yarashtirish faoliyati bilan shug'ullangan shaxslarni bugungi mediatorlar sifatida qarash mumkin. Bu toifa shaxslarni va oilaviy nizolar hisobini yuritish imkonsiz, chunki noprofessional mediatorlar va oilaviy nizolarni hal qilgan ishlari soni bo'yicha ma'lumotga hojat yo'q.

Biroq bugungi globallashuv davrda oilaviy munosabatlar qiyofasi o'zgardi, jamoaviylikdan alohida yashashga o'tish kuchayib bormoqda. Yosh oilalarning mas'uliyatsizligi va tajriba yetishmasligidan nizolar kelib chiqmoqda. Natijada mediatorlarga zarurat yuzaga kelmoqda [4].

**METODOLOGIYA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 17-iyundagi PQ–4754-son qaroriga muvofiq, nizolarni muqobil usulda hal etish bilan shug‘ullanuvchi professional mediatorlarning o‘zaro birlashuviga asoslangan Mediatsiya markazi tashkil etish belgilandi [5]. Bunda ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, nizoli vaziyat borasida o‘zaro fikr almashish, yetakchi xorijiy mediatsiya markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, nizolarni muqobil usulda hal etish sohasida tajriba almashish, shuningdek, nizolarni hal etishga xorijiy mediatorlarni jalb etish maqsad qilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qaroriga muvofiq, Adliya vazirligi tomonidan mediatorlarni tayyorlash dasturi ishlab chiqildi.

### **ASOSIY QISM**

Dasturga ko‘ra mediatorlarni tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, o‘quv kurslarida ta‘lim olish kunduzgi shaklda shartnoma asosida bir oydan kam bo‘lmagan muddat davomida amalga oshiriladi.

Bunda, maxsus o‘quv kurslarida o‘qish uchun fuqarolar Markazga ariza bilan murojaat qilishi kerak. O‘quv jarayoni 15 nafar tinglovchi shakllangan akademik guruhlarda tashkil etiladi. Mediatorlarni tayyorlash dasturi “Mediatsiya. Tayanch kursi” va “Mediatsiyani qo‘llash xususiyatlari” o‘quv dasturlaridan iborat bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlari ma‘ruza, seminar va amaliy mashg‘ulot shaklida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarda muammoli vaziyatlarda qonun hujjatlari bilan ishlash malakasini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O‘quv jarayonida klinik ta‘lim, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi, sayyor mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta‘lim qo‘llanilishi mumkin. Tinglovchilar o‘qish davrida elektron shakldagi o‘quv-metodik materiallar bilan ta‘minlanadi [6].

Mediatorlik faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi. Shunga qaramasdan qonunchilikda mediator bo‘lishi mumkin bo‘lmagan shaxslar belgilangan. Ular:

- davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan shaxslar;
- muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to‘g‘risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan shaxslar;
- sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar;
- o‘ziga nisbatan jinoiy ta‘qib amalga oshirilayotgan shaxslar.

Xorij mamlakatlarida, xususan, Yevropa mamlakatlarida oilaviy va boshqa turdagi nizolarni (rasman kasb sifatida tan olingan) mediatorlar yordamida hal etish amaliyoti ancha oldin boshlangan.

Mamlakatimizda mediatsiyaning rivojlanish prosedurasi singari chet elda ham mediatorlarning muammoni hal etish malakasi, darajasiga qarab turli tanlovni amalga oshiradilar. Ayrim mamlakatlarda oilaviy nizoni hal etishda mediatorning malakasiga qarab tanlashadi, bunda mediatorning ta‘lim darajasining ahamiyati bo‘lmaydi. Bunday mediatorlar mustaqil ravishda faoliyatini tashkil etadilar.

Ko‘pchilik davlatlarda esa mediatorlardan mutaxassislik bo‘yicha ta‘lim olganlik ma‘lumotini talab etilishida bo‘lib, belgilangan maxsus mashg‘ulotlarda qatnashgan bo‘lishi lozim. Qiyoslash uchun, O‘zbekistonda mediatorlarni tayyorlash dasturi 72 soatdan ko‘p bo‘lmagan o‘quv kurslari bo‘yicha tashkil etiladi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2004-yil 5-noyabrda Mediatorlar uchun Yevropa odob-axloq kodeksi qabul qilingan bo‘lib, mediatorlarning professional faoliyatini, axloqiy me‘yorlarini va ularning ishlarida qanday qilib adolatli va samarali tashkil etishlarini belgilaydi.

Kodeks mediatorlar uchun umumiy tamoyillarni va standartlarni o‘rnatadi, shuningdek, ularning mijozlar bilan munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi. Ushbu Kodeksga muvofiq, mediator oilaviy nizolarni hal etishda quyidagilarga majburdir:

Yevropa odob-axloq kodeksi mediatorlar uchun, asosan, mediatorlarning professional xulq-atvori va ish faoliyatida rioya etishi lozim bo‘lgan prinsiplarni belgilaydi. Ushbu kodeks mediatorning etika va professionallik standartlarini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy prinsiplardan iborat bo‘lishi mumkin:

**1. Mustaqillik va neytralitet:** mediator har qanday tomonning manfaatlariga ta'sir qilmasdan, nizolashuvchi taraflarning o'zaro kelishuviga, murosaga kelishiga yordam berishi kerak.

**2. Adolat va tenglik:** mediator nizolashuvchi tomonlarga teng munosabatda bo'lishi va ularning fikrlarini hurmat qilishga, shuningdek, yakuniy qaror har ikki tomon manfaatlariga mos tarzda ishlab chiqilishi.

**3. Maxfiylik:** mediator nizoni hal qilish davomida tomonlardan olingan ma'lumotlarni sir saqlashi kerak. Bu tomonlar o'rtasidagi ishonchni oshirishga yordam beradi.

**4. Professionalizm:** mediator o'z bilimini doimiy ravishda yangilab borishi, malakasini oshirishi va professional rivojlanishga intilishi lozim.

**5. O'z-o'zini baholash:** mediator o'z ishini muntazam ravishda baholab borishi va zarurat tug'ilganda yordam so'rashi kerak.

**6. Tashqi yordamga murojaat qilish:** agar mediator vaziyatni hal eta olmasa yoki tajribasi yetarli bo'lmasa, u boshqa mutaxassislariga yoki mediatsiya tashkilotlariga murojaat qilishi zarur.

**7. Ma'lumot berish:** mediator mijozlarga mediatsiya jarayoni haqida to'liq ma'lumot berishi, shuningdek, ularning huquqlari va majburiyatlari haqida tushuntirishlari lozim.

Yevropa odob-axloq kodeksi mediatorlar uchun muhim hujjat hisoblanadi va u mediatsiya jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir mediator ushbu prinsiplarga amal qilgan holda ishlaganida, tomonlar o'rtasidagi muloqot samarali bo'ladi va muammolarni hal qilish imkoniyatlari ortadi [7].

Shuningdek, ayrim davlatlarda mediatorlarni tayyorlash va mediator faoliyatining o'ziga xosliklari bor, xususan, Germaniyada 2012-yil 21-iyuldagi "Mediatsiyani qo'llab-quvvatlash va nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa tartiblari to'g'risida"gi qonunga muvofiq mediator mediatsiya asoslari va uning tartib-qoidalari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lishi, mediatsiya muzokaralarni amalga oshirish va muloqot qilish texnikasiga hamda nizolarni boshqarish, mediatsiya huquqi(magistratura), amaliy mashg'ulotlar va rolli o'yinlar texnikasi sohalarda bilimga ega bo'lish lozim [8].

Rossiyada esa mediatsiya to'g'risidagi qonun 2010-yilda qabul qilingan bo'lib, u mediatsiya protseduralarini tartibga soladi va mediatorlarning huquqiy maqomini belgilaydi. Bugungi kunda ushbu mamlakatda oilaviy nizolarni sud orqali hal qilishdan ko'ra, mediatsiyani afzal ko'radigan tomonlarning soni ortib bormoqda. Bu esa mediatorlarga bo'lgan talabni oshiradi, shu bilan birga mediatsiya sohasida tadqiqot olib borilmoqda, bu esa yangi metodologiyalarni ishlab chiqishga imkon bermoqda.

Umuman olganda rivojlangan davlatlarda mediatorlar tayyorlash dasturi bir nechta bosqich va usullardan iborat bo'lib, ularning maqsadi malakali, professional mediatorlarni tayyorlashdan iboratdir. Ularni tayyorlash jarayoni quyidagi elementlardan iborat:

**1. Ta'lim dasturlari:** mediatorlar uchun maxsus ta'lim dasturlari orqali ta'lim tashkilotlari, universitetlar tomonidan bo'lajak mutaxassislarda mediatsiya nazariyasi, amaliyoti, etikasi va qonuniy asoslarini o'rgatishni nazarda tutadi.

**2. Amaliy tajriba:** nazariy bilimlardan tashqari bo'lajak mediatorlarga amaliy tajriba ham berilishi muhim. Buning uchun simulyatsiyalar, yuridik klinikalar yoki stajirovka orqali oilalardagi real nizoli vaziyatlarda ishtirok etish imkoniyatlari taqdim etiladi.

**3. Sertifikatlashtirish:** ko'plab rivojlangan davlatlarda mediator bo'lish uchun sertifikat olish zarurati mavjud. Sertifikatlashtirish jarayoni odatda maxsus imtihonlarni o'z ichiga oladi va mediatsiya sohasida belgilangan standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Xususan, mamlakatimizda ham ushbu tizim orqali mediatorlar faoliyati tashkil etilgan.

**4. Mediatsiya etikasi:** bo'lajak mediatorlarga etik-professional qadriyatlar va qoidalar va kasbiy kompetensiyaga rioya qilish muhimligini nazarda tutadi. Bu bilimlar mediatsiya jarayonining ijobiy hal etilishida muhim hisoblanadi.

**5. Malaka oshirish:** mediatorlar uchun malaka oshirish kurslari ularning bilim va ko'nikmalarini yangilab turishga yordam beradi.

**6. Tarmog'ini hamda shaxsiy brendini yaratish:** professional mediatorlar kasbiy rivojlanish barobarida o'zining shaxsiy brendini yaratib borishi lozim. Chunki bugun

mamlakatimizda taniqli mediatorlar deyarli yo‘q, borlari ham o‘zini namoyon qilishmaganligi sababli mediatsiyaning targ‘iboti, jamiyat orasida keng yoyilishi past [9].

Rivojlangan mamlakatlarda yuqoridagi usullar yordamida malakali mediatorlash tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib oilaviy nizolarni sudgacha hal etishning muqobil usuli sifatida mediatsiya amaliyoti muhim o‘rin tutishi va bu amaliyotni malakali va tajribali mediatorlar tomonidan tashkil etilganda samarasi ko‘proq va ijobiy bo‘lishini ko‘rish mumkin. Biroq bu sohaning rivojlanishida bir qator muammolar mavjud:

1. Mediatsiya instituti ko‘proq fuqarolik va tadbirkorlik hamda mehnat munosabatlaridagi nizolarni ko‘rib chiqilganligi sabab oilaviy nizolarni hal etishdagi o‘rni sezilmayapti, bu esa ushbu tizimdan aholining xabardor emasligini, mediatorlarning faoliyati sezilarli darajada targ‘ib qilinmaganligini ko‘rsatadi;

2. Mediatorlar tayyorlovchi ta‘lim dasturining yetishmasligi, maxsus dasturlar va kurslar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa mediatorlarning professional malakasini oshirishda to‘siqlar yaratmoqda. Hatto oilaviy nizolarni mediator yordamida hal etishga doir ta‘lim dasturlari ishlab chiqilmagan.

3. Mediatsiyaga doir umumiy ta‘lim dasturlari nazariy bilimlarga ko‘proq e‘tibor qaratganligi, amaliy tajriba olish imkoniyatlari cheklanganligi. Bunda mediatorlar nizoli vaziyatda qanday ish tutishni bilmasligi, nizoli vaziyatni yanada murakkablashtirishi mumkin.

4. Mediatorlarni tayyorlaydigan oliy ma‘lumotli malakali o‘qituvchilar va murabbiylar yetishmayapti. Bu esa sifatli ta‘lim berishda muammo tug‘dirmoqda. Faqatgina 72 soat o‘quv dasturidan o‘tgan, yetarli nazariy va amaliy tajribaga ega bo‘lmagan mutaxassislarining sohada faoliyat olib borishi qiyinchilik tug‘dirmoqda.

5. Mediatorlik faoliyati keng jamoatchilik orasida yetarlicha targ‘ib qilinmagan. Bugungi kunda er-xotin o‘rtasida nizo yuzaga kelganda murosa yo‘lini qidirib ko‘rmasdan muammolarni hal qilishda sudga murojaat qiladilar, bu esa oilaviy ajrimlar sonini oshishiga va mediatsiya samaradorligini pasayishiga xizmat qilmoqda[9].

6. Mediatsiya xizmatlariga talab yuqori bo‘lishiga qaramay, ko‘plab mediatorlar o‘z xizmatlarini moliyalashtirishda muammolarga duch kelmoqdalar. Natijada ular bu sohani tark etib, daromad keltiruvchi boshqa sohada faoliyat yuritishiga olib kelmoqda.

7. Mediatorlarni tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik metodologiyalar va texnologiyalarni qo‘llash yetishmaydi, bu esa o‘qitish samaradorligini pasaytiradi.

Mediatorlarni tayyorlashning yanada samarali tizimini yaratish uchun davlat organlari, ta‘lim tashkilotlari va boshqa muassasalarning hamkorligi zarurdir. Bu esa oilaviy nizolarni hal qilish jarayonini yanada samarali tashkil qiladi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun O‘zbekistonda mediatorlik ta‘limini takomillashtirish, amaliyotga yo‘naltirilgan kurslarni joriy etish va mediatsiya institutini rivojlantirish zarurdir.

### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-3805227>

2. “Professional mediatorlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2018-yil 29-noyabrdagi 533-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3092) havolasi: <https://lex.uz/docs/-4085354>

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” 2018-yil 3-iyuldagi O‘RQ-482-son qonuni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-3805227>.

4. Zaitov E.X. “Konfliktlar sotsiologiyasi” (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024. – 172 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4859436>.
6. Zaitov E.X. “Ijtimoiy siyosat” (O‘quv qo‘llanma) – Toshkent.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024. – 280 b.
7. European Code of Conduct for Mediators. Available at: [http://fedim.ru/wpcontent/uploads/2014/07/Code\\_of\\_Conduct\\_ru.pdf](http://fedim.ru/wpcontent/uploads/2014/07/Code_of_Conduct_ru.pdf) [Accessed 08/08/2019].
8. Крысова В.Г. Использование института медиации при разрешении споров в международном семейном праве // Научные исследования в области юриспруденции. Саратов, 2017. – С. 32-34.
9. Zaitov E.X. “Oilalar bilan ijtimoiy ish” (Darslik) – Toshkent.: “GRAND KONDOR PRINT”, 2024. – 272 b.
10. Latipova N.M., E.X.Zaitov “Oilalar bilan ijtimoiy ish” – Toshkent.: “VNESHINVESTPROM”, 2023.. – 216 b.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000